



XALQ DEPUTATLARI NUROBOD TUMAN KENGASHINING Q A R O R I

141100, Nurobod tumani, Mustaqillik ko'chasi, 2-uy, Tel: (66) 633-16-34, (66) 633-18-66, e-mail: nurobod.t@exat.uz

2022 - yil 30 - dekabr

VI-65-194-7-99-K/22

Nurobod tuman hokimligi

Nurobod tumanining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 99-moddasi, "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni hamda Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2022-yil 29-dekabrda VI-79-250-7-0-K/22-sonli qarorini inobatga olib, xalq deputatlari Nurobod tumani Kengashining oltinchi chaqiriq, oltmish beshinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuniga (keyingi o'rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Nurobod tumani mahalliy budjetining 2023-yil uchun daromadlari 129 130 200,0 ming so'm, xarajatlari 204 598 885,0 ming so'm prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 75 468 685,0 ming so'm miqdorida tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

2023-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq;

2023-yil uchun tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

2023-yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq;

2023-yil uchun tuman mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq;

2023-yil uchun viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat'iy nazar kamaytirishga yo'l qo'yilmasligi Qonunda belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2023-yil uchun tumanning tuman budjeti zaxira jamg'armasi hajmlari 1 930 178,0 ming so'm miqdorida belgilansin.

5. Tuman budjetining 2023-yil uchun zaxira jamg'armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

6. 2023-yil uchun tuman mahalliy budjeti shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 1 116 000,0 ming so'mni hamda tuman budjetlari shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

7. O'zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023-yilda xalq deputatlari Kengashi mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

8. Qonunga muvofiq, 2023-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman budjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i;

yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i;

yig'imlar (bojxona yig'im-laridan tashqari);

korxonalar aylanmasidan soliq;

Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari;

norudaqurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.

Mobil aloqa xizmatlari uchun, sigaret uchun va alkogol mahsulotlari, shu

jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2022-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

b) viloyat budjeti hamda tuman budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, 40 foiz miqdorida tuman mahalliy budjetiga;

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, 70 foiz miqdorida tuman mahalliy budjetiga;

9. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Ibragimov), tuman moliya bo‘limi mudiri (O.Abdusalomov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i (S.Shavxiyev), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati mudiri (B.Oblanov) va mas‘ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas‘uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta‘minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e‘tibor qaratsin;

tegishli ravishda hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib borilishini ta‘minlasin.

10. Tuman hokimligi matbuot kotibi (E.Pardayev)ga mazkur qarorni “Nurobod” gazetasida rasmiy e‘lon qilish, rasmiy e‘lon qilingandan so‘ng bir kun ichida hokimlikning (nurobod.uz) rasmiy veb-saytiga joylashtirish vazifasi yuklatilsin.

11. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

12. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (S.Suyarov)

hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Ibragimov) zimmalariga yuklansin.

Kengash raisi



S.Berdikulov

Xalq deputatlari Nurobod tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-65-194-7-99-K/22-son qaroriga
1-ilova

**2023-yil uchun Nurobod tumani mahalliy budjetining
daromadlari prognoz ko'rsatkichlari**

		ming so'mda	
T/r	Daromad turlari	Jami	JAMI 129 130 200,0
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	1 540 000,0	
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	51 959 200,0	
3	Korxonalar aylanmasidan soliq	4 326 000,0	
4	Aksiz solig'i, jami	4 351 000,0	
	<i>shu jumladan:</i>		
	<i>- yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i</i>	<i>4 351 000,0</i>	
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 354 000,0	
6	Yuridik shaxslar yer solig'i	15 809 000,0	
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 259 000,0	
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	6 660 000,0	
9	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	882 000,0	
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 430 000,0	
11	Norudaqurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	8 404 000,0	
12	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari	271 000,0	
13	Yig'imlar	323 000,0	
14	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	10 341 000,0	
15	Mobil aloqa xizmati	4 436 000,0	
16	Sigaret uchun aksiz solig'i	10 785 000,0	

Xalq deputatlari Nurobod tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-65-194-7-99-K/22-son qaroriga
2-ilova

**2023-yil uchun Nurobod tumani mahalliy budjetidan hududiy budjet
mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan ajratmalarining cheklangan
miqdorlari**

Ming so'mda

№	Ko'rsatkichlar	2023-yil
Nurobod tuman bo'yicha xarajatlari miqdori, Jami		204 598 885,0
1	Maktabgacha ta'lim bo'limi	8 641 404,0
2	Xalq ta'lim bo'limi	18 684 973,0
3	Sog'liqni saqlash bo'limi	63 503 000,0
4	Madaniyat bo'limi	3 636 779,0
5	Jismoniy tarbiya va sport bo'limlari	4 163 704,0
6	Qishloq xo'jaligi bo'limi	1 304 045,0
7	Moliya bo'limi	1 749 896,0
8	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limlari	1 935 750,0
9	Bandlik bo'limi	872 448,0
10	Hokimiyat	88 883 900,0
11	Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi	3 408 566,0
12	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Samarqand viloyati Nurobod tumanidagi muassasalari	853 311,0
13	Xalq deputatlari tuman Kengashi	287 056,0
14	O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Nurobod tumani bo'limi	3 992 264,0
15	Oila va xotin-qizlar bo'limi	2 681 789,0

Xalq deputatlari Nurobod tuman Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-65-194-7-99-K/22-son qaroriga
3-ilova

2023-yil uchun tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yori

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i	Yig'imlar (bojxona yig'imlaridan tashqari)	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	Korxonalar aylanmasidan soliq	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari
1	Nurobod tumani	100	100	100	100	40	70	100	100

Xalq deputatlari Nurobod tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-65-194-7-99-K/22-son qaroriga
4-ilova

**Tuman mahalliy budjetining 2023-yilgi daromadlari va xarajatlarining
chegaraviy hajmlari**

ming soʻmda

T/r	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
	JAMI	129 130 200,0	204 598 885,0
1	Nurobod tumani	129 130 200,0	204 598 885,0

Xalq deputatlari Nurobod tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-65-194-7-99-K/22-son qaroriga
5-ilova

**2023-yil uchun tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi
budjetlararo transfertlar miqdorlari**

		ming soʻmda
T/r	Shahar va tumanlar	Tartibga soluvchi transfert miqdori
	JAMI	75 468 685,0
1	shundan Nurobod tumani	75 468 685,0

Xalq deputatlari Nurobod tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-65-194-7-99-K/22-son qaroriga
6-ilova

**2023-yil uchun tuman mahalliy budjeti shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida
turadigan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori**

		ming so'mda
T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	1 116 000,0
1	shundan Nurobod tumani	1 116 000,0